

GENDRTENGLIK YOXUD JINSIYAT KURASHI**Maxamatsoliyeva Muxlisaxon O'tkirbek qizi**

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Angren Xorijiy tillar fakulteti Xitoy filologiyasi 1-bosqich talabasi.

Rahbar: Urishov Shokir Mamataliyevich

Anotatsiya: Gender tenglik — bu ayollar va erkaklarning huquqlari, imkoniyatlari hamda mas'uliyatlarining teng bo'lishini anglatadi. Ushbu tushuncha ta'lim olish, mehnat faoliyati, mehnatga haq to'lash, rahbarlik lavozimlarini egallash, qonun oldidagi tenglik hamda oila va jamiyatdagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Gender tenglik "hamma bir xil bo'lishi kerak" degan ma'noni anglatmaydi, balki har bir inson uchun adolatli va teng imkoniyatlar yaratilishini nazarda tutadi. Shuningdek, gender tengligi ijtimoiy va madaniy taraqqiyotning negizi hamdir. Milliy qonunchiligimizga gender tushunchasi 2019-yil 3-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining «Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquqlilik kafolatlari to'g'risida»gi qonun bilan kiritilgan bo'lib, unga ko'ra gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va mafkura, ta'lim va ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatini hisoblanadi. Lekin, ko'p holatlarda bu tushuncha noto'g'ri tushuniladi. Bu ayol va erkaklarning biologik tenglashtirish yokida ayollarning erkaklarda ustunligi, milliy qadriyatlarni ezg'ilash ham emas, balki har bir insonning salohiyatini yuzaga chiqarish uchun imkoniyatdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, gendertenglik tushunchasi ko'pchilik orasida noto'g'ri tushuniladi, ayniqsa ayollar orasida. Erkaklar ayollarga nisbatan jismoniy jihatdan ancha kuchliroq, buni tan olish kerak. Ammo shunday vaziyatlar bo'ladiki, ayollarimiz orasida manfaat olib keladigan ya'nikim moliyaviy yoki shunga o'xshash masalalarda gendertenglik tushunchasi noto'g'ri targ'ib qilina boshlaydi. Biroq, jismoniy mexnat yoki kuch talab qiladigan ishlarda ayollar bosh tortadigan holatlar kuzatilishi mumkin. Albatta, bu holatda ayollar o'g'ir jismoniy mexnat qilish kerak degani emas, ammo mexnat va manfaat ham gendertenglik tushunchasiga mos bo'lishi darkor. Ushbu masala yuzasidan chiqarilgan farmoyishlar natijasida nafaqat to'g'ri targ'ibot va qonun ustuvorligini tenglik bilan ta'minlash maqsad qilib belgilangan.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, ijtimoiy adolat, gendertenglik qonunchiligi, gender diskriminatsiyasi, qonun va mexnat huquqlari, ta'limda tenglik, jismoniy mexnat, gender targ'ibot

Kirish

Gender tengligi-bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Gendertenglik-bu bir xillik yoki erkaklarga qarshi kurash emas, turli to'siq

va nizolarni olib tashlash uchun foydalanilishi kerak bo'lgan tushuncha. Agar ushbu tushunchani «jinsiyat kurashi» deb atasak, kimdir g'olib va kimdir mag'lub bo'lishi kerak degan fikr tug'ilishi tabiiy hol.

Asosiy qism

Raqobat hamma joyda kerak, lekin gendertenglik tushunchasida emas. Xo'sh, gendertenglik orqali ikki jins vakillari o'rtasida ijtimoiy adolatni ta'minlash asosiy maqsad sifatida ko'zda tutilgan. Ijtimoiy adolat-bu insonlar o'rtasida barcha imkoniyat va imtiyozlar teng taqsimlanishidir. Ijtimoiy adolat-hamma bir xil narsaga ega bo'lishi kerak degani emas, balki dini, irqi, millati va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, yashash uchun teng imkoniyatga ega bo'lishini anglatadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, gendertenglik tushunchasiga qonunchiligimizda ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda gendertenglikni ta'minlash va xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylanib kelmoqda. Bu borada mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi 58-moddasiga binoan Xotin qizlar va erkaklar teng huquqlidir. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquqlilik va imkoniyatlarni ta'minlaydi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi Qonun-bu gender tenglik bo'yicha bosh hujjat hisoblanadi. Uning maqsadi:

Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslikdir. Gendertenglik tushunchasidan farqli o'laroq bizda gender diskriminatsiyasi tushunchasi ham mavjud. Ya'ni insonning jinsiga (ayol yoki erkak ekanligi) tufayli cheklov olishidir. Bu hodisa bir jins vakillarini boshqasidan ustun qo'yish yoki ma'lum bir jinsga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lish orqali namoyon bo'ladi. Masalan, ish e'lonlarida faqat erkaklarni yoki ayollarni ishga olamiz deb yozib qo'yilishi va yana shunday holat kuzatilishi mumkinki, qaysikim ish uchun suhbat jarayonida ayollarning oilaviy holati va farzandlari haqida so'ralishi. Bu ikki holat to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita diskriminatsiya deyiladi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni gender tenglikni mehnat munosabatlarida ta'minlashning huquqiy asosi hisoblanadi. Ish beruvchi nomzodlarni tanlashda ularning jinsi bo'yicha kamsitishga haqli emas. Ilgari O'zbekistonda ayollar mehnati taqiqlangan 400 dan ortiq kasblar ro'yxati mavjud edi. 2019-yildan boshlab bu ro'yxat bekor qilindi. Zamonaviy qonunchilik va xalqaro standartlar bu masalada «jismoniy kuch» emas, balki «shaxsiy tanlov» va «xavfsiz sharoit» tamoyillariga tayanadi. Garchi kasbiy taqiqlar bekor qilingan bo'lsa-da, mehnatni muhofaza qilish qoidalari saqlanib qolgan. Ayollar va erkaklar uchun jismoniy yuk ko'tarishning sanitariya me'yorlari mavjud. Gendertenglik jismoniy mehnatda texnologiyalar orqali ta'minlanmoqda. Hozirda og'ir yuklarni ko'tarish uchun jismoniy kuch emas, balki

texnikani boshqarish mahorati talab etiladi. Gendertenglik hamma bir xil og'irlikdagi yukni ko'tarishi kerak degani emas. Bu — jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar, insonning kasb tanlash huquqi cheklanmasligi va har bir jins uchun munosib, xavfsiz mehnat sharoiti yaratilishi demakdir. Gender targ'iboti (yoki gender tenglik targ'iboti) — bu jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasidagi huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy tenglik g'oyalarini yoyishva o'zaro hurmat madaniyatini shakllantirishga qaratilgan harakatlar majmuidir.

Xulosa:

O'zbekistonda gender tenglik masalasi shunchaki ijtimoiy chaqiriq emas, balki davlat siyosatining huquqiy va institutsional asosga ega bo'lgan strategik yo'nalishidir.

Mehnat bozorida «ayollar uchun taqiqlangan kasblar» ro'yxatining bekor qilinishi ayollarga iqtisodiy mustaqillik va erkin tanlov huquqini berdi. Jismoniy mehnatda esa asosiy urg'u «taqiq»ga emas, balki texnologik qulaylik va xavfsiz mehnat me'yorlariga qaratilmoqda. Gender tenglik — bu ayollarni erkaklardan ustun qo'yish yoki qadriyatlardan voz kechish emas, balki har bir insonning jinsidan qat'i nazar, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Bu esa mamlakatning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishdir.

Foydalanilgan manbalar:

1. Lex.uz sayti
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi